



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning

20__ - 20__ - o'quv yiliga 6 – sinf
adabiyot fanidan IV chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 6-sinf adabiyot fanidan IV chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
IV chorak				
1.	Rahmat Fayziy: “Hazrati Inson” romanidan bob: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
2.	Rahmat Fayziy: «Hazrati Inson» romanidan bob: Asar matni bilan ishlash	1		
3.	Rahmat Fayziy: «Hazrati Inson» romanidan bob: “Muhokama qilamiz” bosqichi top- shiriqlari bilan ishlash	1		
4.	Rahmat Fayziy: «Hazrati Inson» romanidan bob: Nasr va nazmning farqlari	1		
5.	Ibroyim Yusupov: «Qadrdon so‘qmoqlar». Xurshid Davron: «Vatan devorlari» she‘rlarini tahlil qilish	1		
6.	Ibroyim Yusupov: “Qadrdon so‘qmoqlar”. Xurshid Davron: “Vatan devorlari” she‘rlarini solishtirish. Metafora	1		
7.	Ibroyim Yusupov va Xurshid Davron lirikasini solishtirish	1		
8.	Oskar Uayld: «Baxtli shahzoda» ertagi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlan- amiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
9.	Oskar Uayld: «Baxtli shahzoda» ertagi: Asar matni bilan ishlash. "Muhokama qilamiz" bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Jonlantirish	1		
10.	Nazorat ishi-7	1		
11.	Azim Suyun: «Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi». Omon Matjon: “Osmon sog‘inch kabi”. Tahlil	1		
12.	Azim Suyun: «Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi». Omon Matjon: “Osmon sog‘inch kabi”. Solishtirish. Ijodiy ish.	1		
13.	Azim Suyun va Omon Matjon lirikasini solishtirish	1		
14.	Fanlararo aloqa: Adabiyot va tasviriy san‘at	1		
15.	Nazorat ishi-8	1		
16.	Takrorlash. Xatolar ustida ishlash. Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Rahmat Fayziy: “Hazrati Inson” romanidan bob: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojida o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mediamanba va kutubxonalardan zarur ma’lumotlarni topa olish va ulardan foydalanish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Rahmat Fayziy (1918–1988) – o‘zbek yozuvchisi, xalqimiz orasida mashhur badiiy filmlar muallifi. U Toshkentda kosib oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tamomlab, Toshkent temir yo‘llari qoshidagi Fabrika-zavod o‘quv chilik maktabida, so‘ng elektromexanika texnikumida tahsil olgan. Hikoya va qissalari, romanlari bilan o‘zbek adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Rahmat Fayziy ijodiy faoliyati davomida

qator gazeta va jurnallarda, obro‘li tashkilotlarda ishlagan, davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Yozuvchi 1988-yili vafot etgan. Hozirda Toshkent shah ridagi ko‘chalardan biri Rahmat Fayziy nomi bilan ataladi. Siz bilan Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda xalqimiz hayoti haqida hikoya qiluvchi asarlarni mutolaa qilgan edik. Biz o‘qishga tayyorlanadigan “Hazrati inson” asari ham Ikkinchi jahon urushi davri haqida hikoya qiladi. Ikkinchi jahon urushi davrida uyidan, ota-onasidan ayrilgan ko‘p bolalar urush bo‘layotgan joylardan O‘zbekistonga olib kelingan. Ko‘pchilik yurtdoshlarimiz qatori toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o‘rtog‘i Bahri Akramova turli millat bolalarini o‘z tarbiyalariga olishgan. Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romani Shoahmad ota va Bahri aya singari kishilar haqida hikoya qiladi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

O‘ylab ko‘ring-chi, “inson”, “insoniylik”, “insonparvarlik” so‘zlari qanday ma‘no anglatadi? Asar nima uchun “Hazrati inson” deb atalgan bo‘lishi mumkin?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Rahmat Fayziy: «Hazrati Inson» romanidan bob: Asar matni bilan ishlash
Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojida o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlash, orasta kiyinish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

oddiy kun tartibini tuza olish, unga amal qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Vitya dadasining qo'lini qo'yib, unga cho'chibroq bir qarab oldi-da, bolalar tomon yurib ketdi. Yurgandayam shoshmay, salmoq bilan, odimini sanab tashlardi. Mahkam aka orqasidan tikilib qoldi. Qani, nima qilarkan? – Assalomu alaykum, – dedi yoshgina, xushbichim kiyingan juvon Mahkam akaning yoniga kelib, – keling, amaki, xizmat.

Mahkam aka juvonga o'girildi, alik oldi. O'tgan safar bu ayolni ko'rmagandi. Tanimadi.

– Bizam birontasini bag'rimizga olsakmikin, deb keluvdik, – dedi Mahkam aka.

– Juda yaxshi o'ylabsiz, ota. Kennoyimlar ham shu yerdamilar?

– Ishi chiqib qoldi. O'zim kelaverdim.

– O‘g‘il bolami yo qizcha olmoqchimisiz?

– Baribir.

– Yoshroq bo‘lsinmi yo eslikrog‘imi?

– Baribir, qizim.

– Qaysi millat bolasi bo‘lgani ma’qul?

Mahkam akaning a’zoyi badani titrab ketdi. Rangi oqardi. Juvon buni payqadimi, yo‘qmi, qo‘lidagi daftarga allanimalarni yozishdan to‘xtamadi.

– Qizim, – dedi zo‘rg‘a o‘zini bosib Mahkam aka, – men mol bozoriga kelganim yo‘q. Tushundingizmi?

– Axir, otaxon...

– Axir-paxiri yo‘q! Indamasam, oriqmi-semizmi, kemshikmipuchuqmi, qorami-sariqmi, deb so‘raydiganga o‘xshaysiz?

– Voy, otaxon, millatini so‘rasam siz...

– Hamma millat bolasi bir! Hammasini Xudo yaratgan! Hammasi odam bolasi! Tushundingizmi?

– Kechirasiz, – juvon Mahkam akaning vajohatidan qo‘rqib ketganidan qo‘lidagi daftar qaltirardi.

– Odam bolasini oq-qoraga ajratmang. Dunyoda bitta shunaqa ablah chiqib, ne kunlarni sovotti odamlar boshiga. Hali jazosini tortadi.

Bularning ko‘z yoshi ko‘r qiladi...

Juvonning gapirishga holi qolmagandi. Shu topda Mahkam aka bolalar to‘dasida turgan o‘g‘liga ko‘zi tushdi, juvonga ham qaramay o‘sha tomonga ketdi. Juvon ag‘rayganicha qarab qoldi. Mahkam aka to‘daga yaqinlashgan ham ediki, birdan bolalar Vityani o‘rab, do‘pposlay ketdi. Vityaning ovozi chiqmasdi. Mahkam aka burgutday o‘zini to‘daga urdi. Vityani azot ko‘tarib oldi. G‘uj bo‘lib turgan to‘da yoyildi. Bir qiz yerda tuproqqa qorilib, bosilib yotgan do‘ppini olib, Mahkam akaga uzatdi. Vitya yuzlarini bekitib, hansirab, liqillab yig‘lardi, chopib kelgan tarbiyachilar nima bo‘lganini surishtira boshlashdi. Bolalar chekka-chekkadan chug‘urlashib ketishdi:

– O‘zi nega dadam bor, deb maqtanadi? – dedi nariroqda turgan bo‘ydor bola.

– Dadasi bo‘lganidan keyin maqtanadi-da, – dedi to‘rt yoshlar chamasidagi sap-sariq sochlari to‘zg‘igan qizcha, – dadam bo‘lsa, meniyam... – gapirolmay yig‘lab yubordi u.

Mahkam aka yalt etib qizga qaradi.

– Do‘pping chiroyli ekan desam, tegma, harom qilasan, deydi, –

qalpog‘ini g‘ijimlab turgan to‘ladan kelgan bola xo‘mrayib gapirdi.

– Axir, shunga urish kerakmidi? – dedi yotig‘i bilan tarbiyachilardan biri.

– Nega fashist deydi?

– Nuqul kiyimlari ko‘pligini maqtaydi. Kim fashist?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Vityaning dadam bor, deb maqtanishi bolalarga nima uchun yoqmadi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

34 listdan iborat adabiyot fanidan 6-sinf IV chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari
2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari
3. Sinf rahbar hujjatlari
4. Metodbirlashma hujjatlari
5. Ustama hujjatlari
6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar
7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)
8. Maktab ish hujjatlari
9. Direktor ish hujjatlari
10. MMIBDO' ish hujjatlari
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari
- 12.Psixolog hujjatlari
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari
- 15.Besh tashabbus hujjatlari
16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar